

MAHALLADA SPORTGA E'TIBOR KUCHAYMOQDA



MAHALLADA SPORTGA E'TIBOR KUCHAYMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun Sarikanda mahallasi yoshlar yetakchisi Hasanov Hayitboy tomonidan mahalla hududidagi yosh tadbirkor Azizbek Mirzobekovga tegishli sport maskaniga mahalla yoshlarini jalb etish va ularni muntazam sport bilan shug'illanishlari uchun imkon yaratish yo'lga qo'yildi.

Ayni kunda mahallaning fitness-klubi yoshlar bilan to'la. Har kungi mashg'ulotlarga faol qatnashayotgan sarikandalik yoshlar bunday imkoniyatdan juda mamnun.

- Hurmatli mahallamiz yoshlari, barchangizni mazkur sport binosiga taklif etib, sport bilan shug'illanishizga chorlab qolamiz, - deya mahalla yoshlar yetakchisi yoshlarni sport klubiga chorlayapti.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-18 17:50:20